

3. *Explain bosqichi* – bilimni verbal ifodalash (umumlashtirish, konsept xaritalar);
4. *Elaborate bosqichi* – yangi vaziyatda qo'llash (muammoli vazifalar yechish);
5. *Evaluate bosqichi* – refleksiya va o'z-o'zini baholash.

Bu integratsiya o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini kuchaytiradi va bilimni amaliy kompetensiyaga aylantiradi. AQSh, Finlandiya va Singapur ta'lim tizimlarida 5E modeli keng qo'llanilib, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, AQShda inquiry-based learning yondashuvi 5E modeli bilan uyg'unlashgan, Finlyandiya ta'limida o'quvchi markazli ta'lim va kognitiv strategiyalar ustuvor, Singapurda esa muammoli o'qitish (problem-based learning) orqali mustaqil fikrlash rivojlantiriladi [3; 3-14].

Ushbu tajribalar 5E modeli va kognitiv strategiyalar integratsiyasining samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda 5E modeli va kognitiv strategiyalarning integratsiyasi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5E modelining bosqichma-bosqich tashkil etilgan tuzilmasi kognitiv strategiyalar bilan uyg'unlashganda o'quv jarayonining samaradorligi ortadi, o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasi kuchayadi. Ayniqsa, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, refleksiya va o'z-o'zini baholash kompetensiyalarining shakllanishida mazkur integratsiyaning o'rni katta hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili ham 5E modeli asosidagi ta'lim o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirishda samarali natijalar berishini ko'rsatmoqda. Shu sababli mazkur yondashuvlarni uzluksiz ta'lim tizimiga keng joriy etish ta'lim sifati va kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – B. 56.
2. Brown A.L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2003.
3. Efklides A. Metacognition and affect: What can metacognitive experiences tell us about the learning process? // Educational Research Review. – 2006. – №1(1). – S..
4. Flavell J.H. Development of children's knowledge about the mental world. – New York: Psychology Press, 2004. –S. 232
5. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring. // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34. – P. 906.
6. <https://talimxabarlari.uz>

TALABALARNING INNOVATSION-IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Sariboyev Nurali Abdunazarovich
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalarning innovatsion-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari hamda interfaol metodlarning ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, innovatsion-ijodiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari, uni shakllantirish bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari va rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim tizimida talabalarni kreativ va innovatsion faoliyatga tayyorlashning samarali usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion kompetensiya, ijodiy kompetensiya, kreativlik, kreativ tafakkur, innovatsion faoliyat, oliy ta’lim, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: в данной статье подробно рассматриваются теоретические основы, педагогические возможности, значение современных образовательных технологий и интерактивных методов развития инновационной и творческой компетентности студентов. Также проводится научный анализ компонентов инновационной и творческой компетентности, этапов её формирования, педагогических условий и механизмов развития. На основе результатов исследования описываются эффективные методы подготовки студентов к творческой и инновационной деятельности в системе высшего образования.

Ключевые слова: инновационная компетентность, творческая компетентность, креативность, творческое мышление, инновационная деятельность, высшее образование, интерактивные методы, педагогические технологии, цифровое образование, компетентностный подход.

Abstract: this article extensively covers the theoretical foundations, pedagogical opportunities, the importance of modern educational technologies and interactive methods for developing students' innovative and creative competence. Also, the components of innovative and creative competence, the stages of its formation, pedagogical conditions and development mechanisms are scientifically analyzed. Based on the results of the research, effective methods of preparing students for creative and innovative activities in the higher education system are described.

Keywords: competence, creative competence, creativity, creative thinking, innovative activity, higher education, interactive methods, pedagogical technologies, digital education, competency-based approach.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda oliy ta’lim tizimi oldida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan, kreativ va innovatsion yondashuvga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Jamiyat taraqqiyoti har bir mutaxassisdan nafaqat chuqur bilim, balki kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etmoqda. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida nafaqat nazariy bilimga ega, balki muammolarni ijodiy hal qila oladigan, yangilik yaratishga qodir bo‘lgan yosh kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning innovatsion-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli

talabalarning innovatsion-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogika va ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Innovatsion-ijodiy kompetensiya talabani kreativ fikrlashi, innovatsion faoliyat olib borishi, yangi g'oyalarni ishlab chiqishi va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli vositalar va kompetensiyaviy yondashuvlardan samarali foydalanish talab etilmoqda[4;128]. Chunki aynan shunday metodlar talabalarning ijodiy tafakkuri va innovatsion salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsiya" tushunchasi yangilik yaratish, zamonaviy usullarni joriy etish ma'nosini bildiradi.

"Ijodiy kompetensiya" esa shaxsning kreativ fikrlashi, yangicha yondashuvi va noodatiy qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Innovatsion-ijodiy kompetensiya - bu talabani mustaqil va kreativ fikrlashi, yangi g'oyalarni yaratishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishi, muammolarni samarali hal qilishi, ilmiy va amaliy faoliyatda yangicha yondashuvlarni qo'llay olishi bilan tavsiflanadigan integrativ sifatlardir. Innovatsion-ijodiy kompetensiya deganda shaxsning yangicha fikrlashi, muammolarga noodatiy yechim topishi, yangi g'oyalarni yaratishi va zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritish olish qobiliyati tushuniladi. Innovatsion-ijodiy faoliyat – bu yangi g'oyalar yaratish, ularni amaliyotga joriy etish va muammolarga noodatiy yechim topish jarayonidir. Talabalarda ushbu faoliyat kreativ fikrlash, analitik tafakkur, refleksiya, tashabbuskorlik va boshqa komponentlardan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: Mazkur kompetensiya talabani zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Chunki innovatsion iqtisodiyot sharoitida kreativ va tashabbuskor mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Talabalarda kreativlikni rivojlantirishning muhim jihatlardan biri ularni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo'naltirishdan iborat. Innovatsion fikrlash – bu yangi g'oyalarni ilgari surish, muammolarni noodatiy usullar bilan hal qilish va mavjud bilimlarni yangi sharoitlarda qo'llay olish qobiliyatidir. Bu jarayon esa bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqdir[4;128]. Innovatsion fikrlash va pedagogik texnologiyalar muammosi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan V.P.Bespalko ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagogik texnologiya – bu aniq natijaga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki Talabani kreativ faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Innovatsiya – ingliz tilidan olingan bo'lib, «Inichida», «novus-yangi», «yangilik», «yangilik kiritish» degan ma'noni anglatadi. U muayyan ijtimoiy birlikka (tashkilotga, aholiga, jamiyatga, guruhga, tizimga) yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib borishi va ularning maqsadga muvofiq o'zgarishidir. «Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta

XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo'lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida Talabaning ijodkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning innovatsion va ijodiy faoliyatini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida rivojlantirish diqqatni bilimlarni passiv egallashdan yangi vaziyatlarda qo'llash qobiliyatiga o'tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda ta'lim tizimining asosiy vazifasi - talabalarni tayyor bilimlarni egallovchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan va kreativ shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Shu bois pedagogik jarayonda innovatsion metodlardan foydalanish, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan talabalarning innovatsion-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida kreativ va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichiga aylanmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha faoliyati va raqamli ta'lim vositalari talabalar kreativ salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhitini yaratish, talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Kelajakda innovatsion-ijodiy kompetensiyaga ega yosh mutaxassislar jamiyatning ilmiy, iqtisodiy va texnologik rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. talabalarning innovatsion-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli ta'lim muhiti talabalar salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchining innovatsion faoliyati va talabaning mustaqil ta'limga bo'lgan intilishi ham muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bespalko V.P. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. – Moskva, 1995.
2. Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Moskva, 2000.
3. Xasanova G.K. Universitet talabalarining ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Fan va ta'lim byulleteni. -2021 yil. 17-3 (120). -P. 68-71.
4. Umurov Z. L., Xasanova G. K. Talabalar ta'lim muassasalarida ijtimoiy faoliyatni rivojlanishning pedagogik asoslari // Fan va ta'lim axborotnomasi. -2022. 2-2 (122). - P. 43-45.
5. Xodjayev, B. X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent, 2018.
6. Sariboyev N.A. Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni. INNOVATIVE ACADEMY xalqaro jurnal, 2026 yil. -4-6 betlar.

BOSHQARUVDA MAHALLIY VA XORIJIY TADQIQOTLARDA MOTIVATSIYA MUAMMOSI

Abduraxmanov Obidjon Xabibullayevich

Guliston davlat universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrası o'qituvchisi